



PARTICIPATION OF UZBEK ATHLETES IN THE OLYMPIC GAMES

Aziz Normuminov

base doctorate

*Karshi State University,
Uzbekistan, Karshi*

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek athletes, Olympic Games, international sports fields, preparatory process, state programs, sports achievements, national sport.

Received: 16.11.24

Accepted: 18.11.24

Published: 20.11.24

Abstract: this article analyzes the participation of Uzbek athletes in the Olympic Games and their achievements in international sports fields. The article will study the training processes of athletes, their results and the importance of state programs and measures aimed at the development of sports in these processes. The theme of improving the image of the country and taking a special place in the history of sports at the international level through the Olympic Games was considered as the main direction. This article focuses on Uzbekistan's role in the Olympic movement and the development of national sport.

O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARNING OLIMPIADA O‘YINLARIDAGI ISHTIROKI

Aziz Normo‘minov

tayanch doktorant

*Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston, Qarshi*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonlik sportchilar, Olimpiada o‘yinlari, xalqaro sport maydonlari, tayyorlov jarayoni, davlat dasturlari, sport yutuqlari, milliy sport.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonlik sportchilarning Olimpiada o‘yinlaridagi ishtiroki va ularning xalqaro sport maydonlarida erishgan yutuqlari tahlil qilinadi. Maqolada sportchilarning tayyorgarlik jarayonlari, ularning natijalari va bu jarayonlarda davlat dasturlari hamda sport rivojiga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyati o‘rganiladi. O‘zbekiston sportchilarining Olimpiada o‘yinlari orqali xalqaro miqyosda mamlakat imijini yaxshilash

va sport tarixida o'ziga xos o'rin egallashi mavzusi asosiy yo'nalish sifatida ko'rib chiqilgan. Ushbu maqola O'zbekistonning Olimpiya harakatidagi roli va milliy sportning rivojlanishiga bag'ishlangan.

УЧАСТИЕ УЗБЕКСКИХ СПОРТСМЕНОВ В ОЛИМПИЙСКИХ ИГРАХ

Азиз Нормунинов

базовый докторант

Кариинский государственный университет

Узбекистан, Кариин

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	спортсмены Узбекистана, Олимпийские игры, международные спортивные арены, подготовительный процесс, государственные программы, спортивные достижения, национальный спорт.	Аннотация:	В данной статье анализируется участие узбекских спортсменов в Олимпийских играх и их достижения на международной спортивной арене. В статье исследуются процессы подготовки спортсменов, их результаты и значение государственных программ и мер, направленных на развитие спорта в этих процессах. В качестве основного направления рассматривалась тема повышения имиджа Узбекистана на международном уровне через Олимпийские игры и его особого места в истории спорта. Данная статья посвящена роли Узбекистана в олимпийском движении и развитию национального спорта.
------------------------	---	-------------------	--

KIRISH

Xalqaro olimpiada uyinlari birinchi marta 1896 yil 6 apreldan 15 aprelgacha Afina shahrida o'tkazilib, unda jami 13 ta mamlakatdan 311nafar sportchi ishtirok etgan. Sport musobaqalari dasturiga sportning 43 turi kiritilgan. Olimpiada o'yinlari shu yildan boshlab doimiy o'tkazilib, musobaqalarni boshqarib turish, bu o'yinlarning ijtimoiy ahamiyati va obro'sini ko'tarish, ishtirok etuvchi davlatlarning sportchilari o'rtasida do'stlikni mustahkamlashga ko'maklashish maqsadida olimpiada harakatining oliy rahbar organi bo'lgan Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi (XOQ) tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi 1992 yil 21 yanvarda Toshkent shahrida chaqirilgan konferensiya qarori bilan tashkil etildi[1].

ASOSIY QISM

O'zbekistonlik xotin-qizlar xalqaro olimpiada o'yinlari dasturidan joy olgan sport musobaqalarida doimiy ishtirok etib keldi. Ushbu nufuzli musobaqalarda ko'plab ayol sportchilar ham qatnashdi. O'zbekiston sportchilari Xalqaro Olimpiada o'yinlarida 1952 yildan 1992 yilgacha sobiq Ittifoq va MDH sportchilari jamoasi tarkibida ishtirok etdi.

O'zbekistonlik sportchilar mustaqillik davrigacha 10 ta yozgi Olimpiya o'yinlarida 59 nafar sportchi ishtirok etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida birgina Atlanta shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida 76 nafar sportchisi ishtirok etdi. Sidney Olimpiadasida 77nafar, Afinada – 69, Pekinda – 58, Londonda 56 nafar o'zbekistonlik sportchilar ishtirok etdi. Mazkur olimpiada uyinlarida O'zbekiston sportchilari jami 21 ta medalni qo'lga kiritdi. Shulardan 5 ta oltin, 5 ta kumush, 11 ta bronza medallari edi. Umuman mustaqillik yillarida o'zbekistonlik sportchilar Osiyo o'yinlarida 271ta medalni (62 ta oltin, 95 ta kumush, 114 ta bronza) qo'lga kiritdi[2]. Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimpiya terma jamoasi tarkibida jami 336 nafar sportchi musobaqalarda ishtirok etdi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi 1992 yil 21 yanvarda tashkil topgan bo'lib, 1993 yil sentyabrda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 101-sessiyasida rasman tan olindi. O'zbekiston Olimpiya akademiyasi tashkil etilgandan buyon unga Abduhamid Hamroqulov, Rustam Qudratov, Jasur Akromov, Olim Qurbonov, Shoakrom Isroilov kabi olimlar rahbarlik qildi[3].

O'zbekistonda olimpiada musobaqalari chempionlari va ishtirokchilari faoliyatini targ'ib etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagi 284-sonli qarori bilan "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyi tashkil etildi. Muzey o'z faoliyatini 1996 yil 1sentyabrdan boshladi. Uning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etdi. "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyi sportchilarimizning jahon arenalarida erishgan yutuqlarini targ'ib etishda, Olimpiya uyinlari ma'lumotlarini yoshlar ongiga singdirishda muhim rol o'ynadi. Mazkur muzey O'zbekiston sportchilarining Olimpiya xalqaro nufuzli musobaqalarda qo'lga kiritgan g'alabalarini o'zida aks ettiruvchi turli mavzudagi ekspozitsiyalar bilan yildan-yilga boyitib borildi. "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyida 2000 dan ortiq eksponat saqlandi. Ko'rgazmalardan medallar, kuboklar, pochta markalari, sport anjomlari va chempionlarning kiyim-kechaklari o'rin oldi[4].

1992 yili Rozaliya Ganiyeva gimnastika bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Birlashgan jamoasi tarkibida Olimpiada chempioni bo'ldi. U sport gimnastikasi bo'yicha 1996 yilgi olimpiya o'yinlarining kumush medali sovrindori bo'lgan[5]. Rozaliya Galiyeva sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha 1992 yilda o'tkazilgan XXV Olimpiada o'yinlarida jamoa tarkibida ishtirok etib, oltin medalni qo'lga kiritdi[6].

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida 1994 yildan boshlab olimpiya o'yinlarida muntazam ishtirok etib keldi. Sportchilar tog' chang'i sporti va fristayl bo'yicha ham olimpiadalarda ishtirok etdilar[7].

1996 yilda AQSHning Atlanta shahrida o'tkazilgan XXVI yozgi olimpiya o'yinlarida Oksana Chusovitina (sport gimnastikasi, 10-o'rin), Irina Lyalina, Yelena Lebedeva, Tatyana

Levina, Inna Isakova (eshkak eshish, 13-o‘rin), Lyudmila Dmitriadi (yugurish, 43-o‘rin), Svetlana Munkova (balandlikka sakrash, 27-o‘rin) lar ishtirok etdi[8].

2000 yil Avstraliyaning Sidney shahrida o‘tkazilgan XXVII yozgi olimpiada musobaqalarida Oksana Chusovitina (ko‘pkurash, 44-o‘rin), Yekaterina Xilko (trampolin, 4-o‘rin), Lyubov Perepelova (yugurish, 22-o‘rin), Lyudmila Dmitriadi (estafeta 4x100 m., 22-o‘rin), Guzel Xubbiyeva (estafeta 4x100 m., 22-o‘rin), Yelena Kvyatkovskaya (estafeta 4x100 m., 22-o‘rin), Yelena Piskunova (estafeta 4x100 m., 21-o‘rin), Zamira Amirova (estafeta 4x100 m., 21-o‘rin), Natalya Kobina (estafeta 4x100 m., 21-o‘rin), Natalya Senkina (estafeta 4x100 m., 21-o‘rin), Sofiya Kabanova (yetti kurash, 27-o‘rin), Saida Iskandarova (suzish, 55-o‘rin), Mariya Bugakova (suzish, 48-o‘rin), Anastasiya Korolyova (suzish, 35-o‘rin), Alyona Aksyonova (o‘q otish, 20-o‘rin), Yuliya Shaxova (o‘q otish, 30-o‘rin), Iroda To‘laganova (tennis, 33-o‘rin), Anisa Petrova (qilichbozlik, 37-o‘rin) lar O‘zbekiston sharafigi himoya qildi.

2004 yili XXVIII Yozgi olimpiya o‘yinlarida xotin-qiz sportchilardan Oksana Chusovitina (tayanib sakrash, 81-o‘rin), Yekaterina Xilko (trampolin, 11-o‘rin), Yuliya Bazarova (eshkak eshish, 17-o‘rin), Yelena Usarova (eshkak eshish, 23-o‘rin), Zamira Amirova (yengil atletika, 37-o‘rin), Guzel Xubbiyeva (eshkak eshish, 18-o‘rin), Lyubov Perepelova (eshkak eshish, 15-o‘rin), Liliya Dusmetova (nayza uloqtirish, 38-o‘rin), Anastasiya Juravlyova (uzunlikka sakrash, 25-o‘rin), Olga Iljukina (yadro uloqtirish), Mariya Bugakova (suzish, 37-o‘rin), Saida Iskandarova (suzish, 32-o‘rin), Irina Shlemova (suzish, 45-o‘rin), Olga Gnedovskaya (suzish, 41-o‘rin), Alyona Aksyonova (o‘q otish, 29-o‘rin), Irina Kaydashova (taekvando, 9-o‘rin), Natalya Mamatova (Mikryukova) (taekvando, 11-o‘rin), Manzura Inoyatova (stol tennisi, 49-o‘rin) lar ishtirok etdi.

2008 yili Pekinda o‘tkazilgan XXIX Yozgi olimpiya o‘yinlarida Yekaterina Xilko trampolin (batutda sakrash) bo‘yicha musobaqaning bronza medali sohibi bo‘ldi. Bu olimpiya o‘yinlarida Zinnura Jo‘rayeva (dzyudo, 19-o‘rin), Mariya Shekarova (18-o‘rin), Luiza Galiulina (ko‘pkurash, 59-o‘rin), Yekaterina Xilko (trampolin, 3-o‘rin), Guzel Xubbiyeva (yugurish, 26-o‘rin), Nadiya Dusanova (balandlikka sakrash, 23-o‘rin), Svetlana Radzivil (balandlikka sakrash, 15-o‘rin), Anastasiya Juravlyova (uch xatlab sakrash, 29-o‘rin), Anastasiya Svechnikova (nayza uloqtirish, 36-o‘rin), Yuliya Tarasova (yetti kurash, 26-o‘rin), Irina Shlemova (suzish, 46-o‘rin), Mariya Bugakova (suzish, 68-o‘rin), Yelena Kuznesova (o‘q otish, 30-o‘rin), Yevgeniya Karimova (taekvando, 11-o‘rin), Akgul Amanmurodova (tennis, 33-o‘rin)lar bahslarda qatnashdi[9].

2010 yilning 14 – 26 avgust kunlari Singapurda I O‘smirlar olimpiya o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Unda jahonning 204 ta mamlakatidan 3531 nafar sportchilar ishtirok etib, sportning 26 turida 201 ta medallar uchun bahs olib borildi. Kattalarnikidan farqli ravishda, ayrim turlarda sportchilarning yoshi cheklab qo‘yilgan. Jumladan, 15 – 16 yoshlilar 27 komplekt medallar uchun, 16 – 17 yoshlilar 63 komplekt medallar uchun musobaqalashdi. Singapurda 21 nafar

o'zbekistonlik sportchi bahslarda ishtirok etib, 3 ta kumush va 6 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi[10].

O'zbekiston Milliy Paralimpiya Assosiatseyasi 2007 yildan buyon faoliyat olib bordi. O'zbekistonlik sportchilar paralimpiya sporti musobaqalarida ilk bora Pekinda 2008 yili ishtirok etdi[11]. 2010 yil Guanchjou shahrida Osiyo Paralimpiya Qo'mitasi Bosh Assambleyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Markaziy Osiyoda yetakchi Milliy Paralimpiya Qo'mitasi deb tan olindi va Afg'oniston, Eron, Markaziy Osiyo davlatlarida paralimpiya harakatini rivojlantirish va nazorat qilish vazifasi topshirildi.

2012 yilning 29 avgust – 9 sentyabr kunlari Buyuk Britaniyaning London shahrida XIV yozgi Paralimpiya o'yinlarida 166 davlatdan 4200 sportchi 20 ta sport turi bo'yicha musobaqalarda ishtirok etdi. O'zbekistondan 10 nafar paralimpiya sportchilari 4 ta sport turlarida ishtirok etdi[12].

2014 yil Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida bo'lib o'tgan II Paraosiy o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan 27 nafar sportchi 22 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza medalga sazovor bo'lib, umumjamoasi hisobida 41 davlat orasida faxrlari 5-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida esa 1-o'rinni egalladi. Shu bilan birga mamlakatimiz sportchilari Paraosiy o'yinlarida 12 marotaba Osiyo rekordini yangilashga hammuvaflaq bo'ldi[13].

2014 yil 16 – 28 avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida o'tkazilgan II O'smirlar olimpiya o'yinlari dasturiga 28 sport turi bo'yicha 222 komplekt medallar uchun bahslar kiritildi. 201 mamlakatdan tashrif buyurgan 3600 nafar sportchi o'z mahoratini namoyon etish imkoniga ega bo'ldi. Ushbu o'yinlarda o'zbekistonlik 28 nafar sportchi munosib qatnashib, 4 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo'lga kiritdi[14].

2013 yili O'zbekiston Milliy olimpiya Qo'mitasi qoshida “O'zbekiston olimpiyachilarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” tashkil etilib, mazkur jamg'arma mablag'lari hisobidan sport federatsiyalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, sport jihozlari yetkazib berildi hamda xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan sportchilar va ularning murabbiylari moddiy rag'batlantirildi. 2015 yili O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasining yangi binosida jamoalarni tibbiy-biologik va sport-psixologik jihatdan ta'minlashga ixtisoslashgan Respublika markazi barpo etildi[15].

2013 – 2014 yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasi, xususan, olimpiya sport turlari faoliyati tahlil qilib chiqilsa, yuqori natijalarga erishilganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbekiston sport delegatsiyasi “Universiada – 2013” o'yinlarida 2 ta oltin, 7 ta kumush va 10 ta bronza, “Yopiq inshootlardagi IV Osiyo o'yinlari – 2013” sport musobaqalarida 3 ta oltin, 4 ta kumush va 3 ta bronza, “II yoshlar Osiyo o'yinlari – 2013” tadbirlarida 1 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza, “II Paraosiy o'yinlari – 2014” uyinlarida 22 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza hamda 4-sohil

bo'yi "Osiyo o'yinlari – 2014" o'yinlarida 4 ta oltin va 6 ta bronza, jami 132 ta medal bilan qaytdi[16].

2016 yil 25 fevraldagi "O'zbekiston sportchilarini 2016 yili Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiada va XV Paralimpiya o'yinlariga munosib tayyorlash to'g'risida"gi qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha dasturga kiritilgan ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. Respublika bo'yicha jami 50 ga yaqin ob'yekt foydalanishga topshirildi, jumladan, 4 ta yangi inshoot qurildi, 13 tasi rekonstruksiya qilindi va 24 tasida kapital ta'mirlash ishlari olib borildi[17].

2016 yili Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Paralimpiya o'yilarida o'zbekistonlik ayol sportchilar ham faol ishtirok etib, sovrindorlar safidan o'rin oldi. Xususan, Nozimaxon Qayumova nayza uloqtirish bo'yicha oltin, Fotimaxon Alimova 100 metrga brass usulida suzishda oltin, batterflay usulida suzishda kumush va bronza, Muslima Odilova suzishda 2 ta kumush, Hayitxon Alimova dzyudoda kumush, Safiya Burxanova yadro uloqtirishda kumush, Sevinch Salayeva dzyudoda bronza, Gulrux Rahimova dzyudoda bronza, Tursunposhsha Nurmetova dzyudoda bronza, Shoxsanamxon Toshpo'latova suzishda 2 ta bronza medallariga ega bo'ldi[18].

Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida 70 nafar o'zbekistonlik sportchi (ulardan 22 nafar xotin-qizlar) musobaqalarda qatnashish huquqini qo'lga kiritdilar. Paralimpiyachilar orasida 52 ta lisenziya qo'lga kiritildi, bu sonni 32 nafar imkoniyati cheklangan sportchilar qo'lga kiritishdi. Mamlakatimizda jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarga sharoitlar yaratilmoqda.

Rio – 2016 Olimpiada o'yinlarida Oksana Chusovitina (sport gimnastikasi), Yekaterina Xilko (trampolin) va Anastasiya Serdyukova (badiiy gimnastika) ishtirok etdi. Mazkur olimpiada o'yinlarida Oksana Chusovitina 7-o'rinni, badiiy gimnastikachilardan yakkalik bahslarida Anastasiya Serdyukova 17-o'rinni, guruhli chiqishlarda Marta Rostoburova, Luiza Ganiyeva, Zarina Qurbonova, Lera Davidova, Samira Amirova 14 ta davlat ichida 11-o'rinni egalladi[19]. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, XXXI Yozgi Olimpiya o'yinlarida 207 ta mamlakat orasida O'zbekiston 21-o'rinni, Paralimpiya o'yinlarida esa 16-o'rinni egalladi.

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahri mezbonlik qilgan 2016 yilgi Olimpiya o'yinlarida o'zbekistonliklar to'rtta oltin, ikkita kumush va yettita bronza medallarini qo'lga kiritib, Markaziy Osiyoda tengsiz ekanliklarini isbotlashdi. Umumjamoa hisobida O'zbekiston delegatsiyasi 21-o'rinni egallagan bo'lsa, MDH mamlakatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi pog'onadan joy oldi[20].

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida 2016 yili o'tkazilgan XV Paralimpiya o'yinlarida qatnashgan delegatsiya ajoyib muvaffaqiyati bilan yodda qoladi. Vatanimiz sharafiga himoya qilgan 32 sportchi jami 31 medal sohibiga aylandi. 2017 yilga kelib O'zbekiston terma jamoasi

a'zolari olimpiada shohsupasiga jami 54 marta ko'tarilishdi. Sportchilarimiz 10 ta oltin, 7 ta kumush va 17 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi[21].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 9 martdagi "O'zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida"gi PQ-2821-sonli qarori qabul qilindi[22].

III O'smirlar olimpiya o'yinlari 2018 yilning 11 – 23 sentyabr kunlari Argentina poytaxti Buenos-Ayres shahrida o'tkazildi.

"Tokio – 2020" Olimpiada o'yinlarida O'zbekistondan 28 nafar xotin-qizlarning ishtirok etishi ham ayollar o'rtasida sportni rivojlantirishga katta e'tibor berilayotganligining samarasi bo'ldi[23].

2020 yilgi Tokio olimpiadasida 46 yoshli gimastikachi Oksana Chusovitina ham ishtirok etdi va erishgan yutuqlari sabab jahon rekordchisiga aylandi.

2021 yilda Tokioda o'tkazilgan paralimpiya o'yinlarida Surxonning Barchinoy qizlaridan biri Guljonoy Naimova taekvonda sport musobaqasida oltin medalni olish sharafiga muvaffaq bo'ldi[24].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tokio shahrida bo'lib o'tgan XVI yozgi paralimpiya o'yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruxini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni asosida 2021 yilda Tokio shahrida bo'lib o'tgan XVI paralimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan bir guruh xotin-qiz sportchilar ham mukofotlandi[25].

"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan Mirzayorova Asila 1999 yil 3 iyulda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida tug'ilgan. Baxtsiz hodisa tufayli ko'rish qobiliyatida nuqson paydo bo'lishiga qaramasdan, bu irodali qiz o'zini yo'qotib qo'ymadi. Sportning yengil atletika turi bilan shug'ullanib, viloyat, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok eta boshladi. 2016 yilda BAA da yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqada ishtirok etdi va 3 ta oltin medalni qo'lga kiritdi. 2017 yilda Indoneziyaning Jakarta shahrida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada bronza medali sohabasi bo'ldi. 2019 yilda BAA ning Dubay shahrida kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqada Paralimpiya yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Tokio shahrida bo'lib o'tgan Paralimpiya o'yinlarida 2-o'rinni egallab kumush medal sohibisiga aylandi[26].

XULOSA

Xullas, Olimpiada o'yinlari jahon sportida eng muhim musobaqa hisoblanib, uning doimiy o'tkazilishi XIX asrning oxirlaridan boshlandi. Olimpiada musobaqalarini uyushtirish va boshqarish uchun Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi tashkil etildi. Xususan, O'zbekistonda ham Milliy Olimpiya Qo'mitasi tuzildi. Milliy Olimpiya Qo'mitasi tashabbusi bilan o'zbekistonlik sportchi

ayollar olimpiada o'yinlarida faol ishtirok etib keldi. Mustaqillik yillarida ayniqsa Rozaliya Ganiyeva, Lina Cheryazova, Oksana Chusovitina kabi sportchi xotin-qizlar olimpiada musobaqalarida faol qatnashib, O'zbekistonning dovrug'ini dunyoga tanitdi.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining tuzilishi olimpiada o'yinlarini tashkillashtirish va o'tkazishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekistonda ham Milliy Olimpiya Qo'mitasining tuzilishi respublika sportchilarining jahon arenalari va olimpiada uyinlarida muvaffaqiyatli ishtirokida muhim rol o'ynadi. Milliy Olimpiya Qo'mitasi doimiy ravishda sportchi xotin-qizlar xalqaro olimpiada uyinlarida muvaffaqiyatli ishtirok yuzasidan chora-tadbirlar olib bordi. O'zbekistonlik sportchi xotin-qizlar o'tgan asrning 50 yillaridan boshlab olimpiada musobaqalarida faol qatnasha boshladi. Nihoyat O'zbekiston mustaqil bo'lgach, xotin-qiz sportchilar 1996 yildan mustaqil davlat vakillari sifatida olimpiada o'yinlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Olimpiada g'oliblari faoliyatini targ'ib etish uchun Toshkent shahrida "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyi ochildi. Xalqaro olimpiadada o'zbekistonlik Rozaliya Ganiyeva, Lina Cheryazova, Oksana Chusovitina kabi sportchi qizlar oltin va kumush medallarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, Oksana Chusovitina besh marta Olimpiada o'yinlarida qatnashib, Ginnes rekordi kitobiga kirdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://olamsport.com/uz/news/39800>
2. Эрнazarов Э. Олимпиада – жаҳон спорти байрами. Илмий-оммабоп рисола. – Т.: “Шарқ”, 2008. – Б. 206
3. “Олимпия шон-шуҳрати” музейи жорий архиви материаллари.
4. Нормурадов А. Мозий ва замонавий спорт олимпиадалари тарихидан // “Олимпия спортида замонавий илм-фан” // Халқаро илмий-амалий онлайн анжуман тўплами. – Т.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2020. – Б.295 – 297.
5. Эрнazarов Э. Олимпиада–жаҳон спорт байрами. –Т.: Шарқ, 2008. – 224 б.
6. Моргунова И.И. Гимнастика. – Т.: “Ижод-дунёси”, 2017. – Б.36.
7. Эрнazarов Э. Олимпиада – жаҳон спорт байрами. – Т.: Шарқ, 2008. – 224 б.
8. Ўзбекистон гимнастика федерацияси жорий архиви материаллари.
9. Ештаев А.К., Хасанова Н.Р. Ештаева В.Б. Бадий гимнастика назарияси ва услубияти. – Т., “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – Б.60.
10. Олимп сари. – Т., 2017. – Б.73 – 74.
11. Замонавий таълим / Современное образование. 2016. – № 6-сон. – Б. 63-70.
12. Замонавий таълим / Современное образование. 2016. – № 6-сон. – Б. 63-70.
13. Замонавий таълим / Современное образование. 2016. – № 6-сон. – Б. 63-70.
14. Олимп сари. – Т., 2017. – Б.73-74.

15. Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети жорий архиви материаллари.
16. Олимп сари. – Т., 2017. – Б.80-82.
17. “Ўзбекистон спортчиларини 2016 йили Рио-де-Жанейро шаҳри (Бразилия)да бўлиб ўтадиган XXXI ёзги Олимпиада ва XV Паралимпия ўйинларига муносиб тайёрлаш тўғрисида”ги қарори. 25.02.2016.
18. Олимп сари. – Т., 2017. – Б.124.
19. Ештаев А.К. Ҳасанова Н.Р., Ештаева В.Б. Бадий гимнастика назарияси ва услубияти. – Т., “O`zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – Б.64.
20. Миллий олимпия қўмитаси жорий архиви материаллари.
21. Миллий олимпия қўмитаси жорий архиви маълумотлари.
22. Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) бўлиб ўтадиган XXXII ёзги Олимпия ва XVI Паралимпия ўйинларига тайёрлаш тўғрисида”ги ПҚ-2821-сонли қарори. 09.03.2017.
23. <https://sputniknews-uz.com/20210813/shavkat-mirziyoev-ozbekistonlik-sportchi-qizlar-yutuqlarini-alohida-sanab-otdi-20066395.html>
24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 августдаги «Токио шаҳрида бўлиб ўтган XXXII ёзги Олимпия ўйинларида юқори натижаларга эришган спортчи ва мураббийлардан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида»ги Фармони; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 10 сентябрдаги “Токио шаҳрида бўлиб ўтган XVI ёзги Паралимпия ўйинларида юқори натижаларга эришган спортчи ва мураббийлардан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида”ги Фармони.
25. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 11 сентябрь.
26. Паралимпия сориндори Мирзаёрова Асила билан бўлган суҳбат. 2022 йил 14 февраль.